



## YOSHLARDA MA'NAVIY YETUKLIK VA MA'RIFAT TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

**Gulmurodova Nigora Baxronovna**

*Tayloq tumani 2- son kxm Yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda yoshlarning dunyoqarashi, uning barkamol shaxs bo'lib shakllanishida ma'naviy tarbiya berishning innovatsion yo'llari, hamda bu borada olib borilayotgan islohotlar o'z aksini topgan.*

**Kalit so'zlar:** *inson ichki olami, imon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch, ichki olami, tafakkur va dunyoqarashi, axloq va odobi.*

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" nomli asarida: "Ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imone'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlari mezonidir" deya ta'kidlagan. Inson ma'naviyati uning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish orqali shakllanadi. Inson go'dakligidan boshlab ehtiyojlari shakllana boshlaydi. Shu sababli ham inson ehtiyojlari va ularni qondirish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Ehtiyojlar insonning iste'mol qilish qobiliyatlaridir.

Demak, ehtiyojlarni, insonning iste'mol qilish qobiliyatlarini shakllanish jarayoniga ta'sir qilish, tarbiyalash, boshqarish, shakllanganlarini esa o'zgartirish mumkin. Insonda qaysi bir noz-ne'matni iste'mol qilish, foydalanish, ishlatishga qobiliyat shakllansa, ana shu narsalarga ehtiyojlar paydo bo'ladi. Ayniqsa, bu jarayon yoshlar o'rtasida keskin kuzatiladi. Masalan, tamaki, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga ruju qo'ymagan kishilarda ularga nisbatan ehtiyoj tug'ilmaydi. Masalan, ommaviy madaniyatga bo'lgan ehtiyojlar ular to'g'risidagi axborotlar va yo'l qo'yilgan shart-sharoitlar tufayligina kirib kelishi mumkin. Ehtiyojlar insonda biror narsaga bo'lgan muhtojlik sifatida namoyon bo'ladi, hayotiy zaruriyat ko'rinishiga ega bo'ladi.

Inson o'z ehtiyojlarining mazmun-mohiyatini, ularning qondirilish vositalari va jarayonlarini chuqur o'rganib, tahlil qilib borishlari kerak. Inson ehtiyojlarini qondiruvchi noz-ne'matlarni (tabiat in'omlari, ijtimoiy ishlab chiqarish mahsulotlari) o'rganish, iste'mol va foydalanish qanday natijalarga olib kelishini bilishgina hayot rivojlanishida ijobiy natijalarga yetaklaydi. Ma'naviy ehtiyojlar ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, barkamol avlod tarbiyasida yoshlarning



ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ehtiyojlar tiriklik belgisi bo'lsa, ma'naviy ehtiyojlar kishining ijtimoiyligi, insoniyligi belgisidir.

Ma'naviyat faqat insonga xos xususiyatdir. Ma'naviyat ruhiy, aqliy, axloqiy qadriyat sifatida millatning, xalqning, har bir shaxsning ichki olami, tafakkur va dunyoqarashi, axloq va odobi, ya'ni barcha insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Chunonchi, ma'naviyatni inson ichki olamini boyitadigan, uni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning imon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch, deb ta'riflanadi.

Ma'naviyat, odatda, tarbiya va bilim berish orqali shakllantiriladi. Shu sababli ham inson ma'naviyatining qudrati ma'rifatga bog'liqdir. Ma'rifat bu - bilish, bilimni tanish demakdir. Bilimlar dunyoviy, diniy, falsafiy (donishmandlik) yo'nalishlarda bo'ladi.

Tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar - ma'rifat deb ataladi. Ma'rifatli kishilar o'z bilimlarini inson va jamiyat kelajagi, baxtsaodati yo'lida foydalansalar, ularni ma'naviyatli deb ataydilar. Inson ma'naviyati hayotiy tajriba, ilm-zakovat natijasida atrof-muhit va boshqa kishilarning namunasi ta'sirida shakllana boradi. Shaxs ma'naviyati millat, jamiyat, davlat ma'naviyatining bir bo'lagidir. Ma'naviyat kishilar o'rtasidagi ko'pqirrali munosabatlar, jamiyat hayotidagi sharoit va imkoniyatlar asosida rivojlanadi. Shu bilan birga ma'naviyat odamlar o'rtasidagi yuksak axloqu-odob me'yorlari, huquqiy mezonlar, mafkuraviy e'tiqodga asoslangan adolatlilik, insonparvarlik, halollik bilan sug'orilgan munosabatlarning asosidir.

Yoshlarimiz qalbi, ongi, tafakkurida milliy g'urur, ularda oilasi, mahallasi, kindik qoni to'kilgan aziz joy - Vatanni qalbidan sevishtni anglash ehtiyojini shakllantirish kerak. Yoshlar ma'naviy ehtiyojlarining shakllanishi jarayoniga bu sifatlarga xos fazilatlarni singdirish psixologik va pedagogik jihatdan murakkab, va uzoq muddat talab qiluvchi dolzarb muammolardan biridir. Yoshlarda ma'naviy ehtiyojlarni hakllantirishda quyidagi uslublardan foydalanish mumkin:

1. *Kuzatuv uslubi* - har bir obyektini vaqt, joy, holat va boshqa parametrlar bo'yicha kuzatish, aniq davr ichida tahlil qilib, shartli ravishda choralar belgilash o'z samarasini beradi. Bu uslub pedagogdan o'ta sinchkovlik va sabr-toqat talab qiladi.

2. *Mehnat mahsuli, ma'lumotla tahlili* - ilmiy niqtayi nazardan kerakli bo'lgan uslub. Talaba haqida uning hujjatlari va, avvalo, uni tavsif etadigan, oldin unga nisbatan qo'llanilgan uslublar natijalari, uning mehnat mahsuli



(tayyorlangan mustaqil ishlari, tarjimayi hollar, ijodiy harakatlari va b.) orqali ma'lumot olish va kerakli xulosalar qilish mumkin.

3. *Suhbat* - kuzatuv jarayonida shubha tug'dirgan holat bo'yicha oydinlik kiritishning eng samarali uslubi. To'g'ri rejalashtirilgan suhbat talabaning ruhiy holatini uning o'zidan bilishga, kuzatuv usulini tekshirishga imkoniyat beradi. Ushbu usuldan foydalana olish pedagogning mahoratiga bog'liq. Masalan, salbiy psixika o'zgarishini aniqlash uchun uni ijobiy holatlardan ajrata bilish zarur, ya'ni pedagog yosh davri psixologiyasidan xabardor bo'lishi kerak.

4. *Uslubiy tajriba* - to'plangan kuzatuv natijalari, suhbat jarayonida olingan ma'lumotlarga asosan, kerakli ta'sir o'tkazish maqsadida qo'llaniladigan uslub, bu o'ta murakkab bo'lib, jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Tajriba uslubini qo'llash o'quv muassasasi psixologi bilan kelishilgan holda va uning nazoratida olib borilishi maqsadga muvofiq. Tajriba o'tkazishning o'ziga xos talab va qonunlari bo'lib, alohida tadbir rejasiga asosan amalga oshiriladi.

5. *So'rovnom*a - savol-javob, talabalar uchun ochiq tekshiruv bo'lib, ushbu uslub qo'shimcha tekshiruvlar, tahlillarni talab qiladi. Natijalar doim ham ishonarli o'lmasligi mumkin.

6. *Test* - sinov. Psixologik muvozanatga ega bo'lmaganlar uchun o'ta qiyin sezilishi, o'z fikriga va bilimiga ega bo'lmaganlar tomonidan ko'r-ko'rona tanlash yo'li bilan amalga oshiriladigan uslub. Yoshlarning ongi, dunyoqarashi to'la rivojlanmaganligini inobatga olsak, umumiy testlar kerakli natijalar bermasligi mumkin. Bu uslubni qo'llash uchun mavzu o'ta aniq, yo'naltirilgan, savol-javoblar puxta tayyorlangan bo'lishi zarur.

7. *Korreksion* - rivojlantirish uslublari - aniqlangan salbiy psixologik o'zlashtirishlarni bartaraf etish, to'g'rilash, talabalarda mavjud ijobiy fazilatlar, qobiliyat va iste'dodlarini rivojlantirish maqsadlarida qo'llaniladi. Bu - turli sohalar, xilma-xil mavzular bo'yicha olib borilishi mumkin. Yaxshi tayyorgarlik bilan amalga oshirilgan ushbu uslublar kerakli natijalar beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдусаматова, Ш. С. (2020). Ҳарбий хизмтчиларни амалиётга тайёрлашнинг ижтимоий-психологик жиҳатлари. Ҳарбий фаолиятда психологик ва социологик хизматнинг тутган ўрни ҳамда роли" мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси, 25-28.



2. Абдусаматова, Ш. С. (2020). Интерактивное обучение как специальная форма организации познавательной деятельности. *“Замонавий педагогиканинг долзарб муаммолари” илмий мақолалар тўплами, 2*, 191-194.

3. Абдусаматова, Ш. С. (2020). Харбий фаолиятда психологик тадқиқот услубиятининг ўрни. *Харбий фаолиятда психологик ва социологик хизматнинг туганган ўрни ҳамда роли” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси*, 48-51.

4. Rakhmanova, M. K. (2016). Bases of formation students social activity. *Eastern European Scientific Journal*, 106-109.

5. Рахманова, М. (2019). Ёшларнинг маънавий тарбиясида қадимги ўрта осий маънавий-маданий меросининг аҳамияти. *“Глобаллашув шароитида ватанпарварлик тарбиясининг маънавий-маърифий технологиялари” республика илмий-амалий конференцияси*, 206-210.

6. Рахманова, М. (2019). Таълим жараёнида талабаларда креативлик қобилиятини шакллантириш масалалари. *Замонавий педагогика фанининг долзарб муаммолари (илмий мақолалар тўплами)*, 189-191.

7. Рахманова, М. К. (2016). Высшее образование и повышение духовнонравственной культуры и социальной активности конкурентоспособных специалистов. *Science and world*, 11(39), 85-87.

8. Рахманова, М. Қ. (2018). Истеъдод - олий инсоний фазилат сифатида. *“Ёшларда касбий мотивларни шакллантиришнинг молиявий-иқтисодий ва педагогик-психологик масалалари” мавзусидаги вазирлик миқёсида ўтказиладиган илмий-амалий конференция*, 242-244.

9. Абдусаматова, Ш. С. (2020). Талаба ёшларнинг интеллектуал ижодий салоҳиятини ривожлантириш. *“Замонавий педагогиканинг долзарб муаммолари” илмий мақолалар тўплами, 1*, 203-205.